

**“AMU-QASHQADARYO ITHBDA ISHLATILAYOTGAN NASOS  
STANSIYALARINING IQLIM KO‘RSATKICHLARINI TADQIQOTI”**

*Fayzullayev Joxon Toshpo‘lat o‘g‘li*

*“TIQXMMI”MTU Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti,  
stajyor o‘qituvchisi*

*Sarmonov Nodir O‘tkir o‘g‘li*

*“TIQXMMI”MTU Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti, assistent.*

*Aralov Behro‘z G‘ayratovich*

*“TIQXMMI”MTU Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti,  
stajyor o‘qituvchisi*

*Sag’dullayeva Sevara*

*“TIQXMMI”MTU Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti, talabasi*

*Shoniyo佐 Shahrzod Abdusamat o‘g‘li*

*“TIQXMMI”MTU Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti,  
stajyor o‘qituvchisi*


**Anotatsiya:** Qarshi magistral kanali Qashqadaryo viloyatining Nishon, Qarshi, Koson, Kasbi, Mirishqor, G‘uzor va Muborak tumanlaridagi 250 ming hektar yer maydonlaridagi yokinlarni sug‘orish, shuningdek, ichimlik, texnik suv ta’minoti uchun suv yetkazib beradi

Qarshi magistral kanaliga Amudaryoning Pulizindon tirsagidan suv olinadi va 7 ta nasos stansiyalaridan tashkil topgan kaskad yordamida daryo suvi Talimarjon suv omborigacha yetkazib beriladi. Kaskaddagi 7 – nasos stansiyasi bevosita suv omborni to‘ldirishga xizmat qiladi. Qarshi magistral kanalining Talimarjon suv omborigacha bo‘lgan uzunligi 78,4 km ni tashkil etadi. Kaskadning umumi suv ko‘tarish balandligi 6 – nasos stansiyasining yuqori befigacha 132,2 metrga teng, suv omborning me’yoriy suv sathigacha balandlik 158,9 metrni tashkil etadi. Qarshi magistral kanali kaskadining me’yoriy suv sarfi 175 m<sup>3</sup>/s, oshirilgan suv sarfi 195 m<sup>3</sup>/s ga, umumi quvvati esa 516 000 kVt ga teng. Qarshi magistral kanali nasos stansiyalari Qarshi cho‘lidagi xo‘jaliklarning ekin maydonlarini suv bilan ta’minlash uchun xizmat qiladi.

Qarshi cho‘li hududida yillik yog‘in miqdori unchalik katta emas (Qarshida – 278 mm, Muborakda – 179 mm). Yoz faslining uzoq davom etishi oqibatida hududda yillik haroratning yuqoriligi natijasida bug‘lanish 1609 mm gacha yetadi, bu esa o‘z navbatida namlik tanqisligi (defitsit) ni vujudga keltiradi. Hududda qishloq xo‘jaligi ekinlaridan yuqori mahsulot olish uchun sug‘orma dehqonchilikni rivojlantirish talab etiladi.

**Kalit so'zlar:** gidromexanik, iqlim, kavitasni, temperatura, sharoit, gidromorf, statistik.

Qarshi cho'lining markaziy va g'arbiy qadimiyligini platolari atrofida taqirli (jami 391 ming ga, shu jumladan 106 ming ga sug'oriladigan, 285 ming ga sug'orishga yaroqli) va sur tusli qo'ng'ir (Devxona, Jarqoq platosi, Dengiz sirt past tog'larida 337 ming ga) tuproqlar tarqalgan. Cho'l zonasining ancha yirik qismida gidromorf tuproq maydonlari ham rivojlangan, bular sho'rxoklar, o'tloqi va botqoq tuproqlardir. Bu yorda sug'orish uchun foydalaniladigan yerkarning kattaligi, intensiv qishloq xo'jalik raenlarining vujudga keltirilganligi, issiqlik resurslariga boyligi qimmatbaho qishloq xo'jalik yokinlarini etishtirish imkonini bersa, keng cho'l maydonlari doimiy yaylov chorvachiliginini rivojlantirish uchun manba bo'lib xizmat qiladi.



1 – rasm. Qashqadaryo viloyatining irrigasjion haritasi

Hozirda Qarshi cho'li yer resurslaridan yaylov chorvachiligi, sug'oriladigan va lalmi dehqonchilik tarmoqlarida keng foydalanilmoqda. Qarshi cho'lining suv tanqis qishloq xo'jaligiga yaroqli bo'lgan hududlarida qadimdan to hozirgi vaqtga qadar yaylov sifatida foydalanib kelinmoqda. Ammo bu hududlarda to'g'ri keladigan chorva turi sonining ko'pligi, yillik tiklanadigan yem-xashak sig'imidan ko'ra kattaroqdir.

Qarshi cho'li sug'oriladigan yer fondining solishtirma bahosi (tuproq xossalari, unumdorligi, dehqonchilikdag'i faol foydaning cheklanganligi, ozuqabopligi, yokin turlarining cheklanganligi, sho'rланish darajasi, Eroziyaga beriluvchanligi, boniteti)

hozirgacha unchalik katta emas. Ammo Qarshi cho‘lida sug‘oriladigan yer maydoni yildan yilga ortib 1913 yilga nisbatan 1983 yilda 36 barobar oshgan (200 ming ga) bo‘lsa, 2008 yilda 45 barobarga yetgan (246 ming ga).

Qarshi cho‘lining och tusli bo‘z va taqir tuproqlarida kelajak istiqbolda sug‘orma dehqonchilikda foydalanishga yaroqli bo‘lgan yerlar qariyb 1,0 mln.ni tashkil etadi. Suv resurslari bilan taminlash imkoniyatlari cheklangan bo‘lmaganida cho‘l hududi sug‘orma dehqonchilik yerlaridan kelgusida 1,3 mln. tonna paxta, 300 ming tonnadan ortiq g‘alla, 300 ming tonnaga yaqin meva va boshqa qishloq xo‘jalik mahsulotlarini etishtirish imkon bo‘ldi.

***QMK nasos stansiyalari hududining iqlimiyligi ko‘rsatkichlari  
(Qarshi meteostansiyasi ma’lumotlari)***

**1.1 – jadval**

	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	Miqd ori
O‘rtacha oylik havo harorati:			
	yanvar	°S	1,1
	iyul	°S	30,1
O‘rtacha yillik havo harorati:			
		°S	15,8
Mutlaq maksimum harorat		°S	49,0
Mutlaq minimum harorat		°S	-28,0
Nisbiy namlik yanvar iyul yil davomida		%	79,0
		%	30,0
		%	55,0
Yog‘in – sochinlar Yanvar mart yil davomida		mm mm	43,9
		mm	61,0
			278,0
Bug‘lanish yanvar mart iyul yil davomida		mm mm	21,0
		mm mm	49,0
			306,0
Namlik taqchilligi (yil davomida)		mm	1609, 0
			1380, 0

	Shamolning o‘rtacha tezligi yanvar iyul yil davomida	m/sek m/sek m/sek	2,3 4,4 3,1
--	---	-------------------------	-------------------

Ayniqsa adir iqlimli cho‘l yerkarni sug‘orish natijasida qayta sho‘rlanish, irrigasiya eroziysi, cho‘kish, zah bosish (botqoqlanish), agrolandshaftlarning kimyoviy birikmalar bilan zaharlanishi, tuproqlar tarkibida pestitsidlar, gerbitsidlar va nitratlar miqdorining ortib borishi, yer usti va yer osti suvlarining minerallashish darajasining kuchayishi, tabiiy resurslarning kamayib borishi va geoekologik vaziyatning keskinlashuviga olib kelmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. M.M. Muxammadiev, Urishev B.U. Gidroenergetik qurilmalar. Darslik. T.: “Fan va texnologiya”, 2013, 280 bet.
2. Urishev B.U. «Nasoslar va nasos stansiyalari» fanidan ma’ruzalar matnlari to‘plami. Q., QarMII., 2000. – 76 b.
3. Справочник. Устройства закрытых оросительных систем. Трубы. Арматуры. Оборудование./ Под ред. проф. д.т.н. В.С.Дикаревского, М., 1986. – 256 с.